



TOSHKENT VILOYATI HUDUDIIY SAYLOV KOMISSIYASI QARORI

Nurafshon shahri

№ 12

2024 yil 7-iyun

TADBIRKORLAR VA ISHBILARMONLAR HARAKATI – O‘ZBEKISTON LIBERAL- DEMOKRATIK PARTIYASI TOSHKENT VILOYATI KENGASHIGA BO‘SHAB QOLGAN O‘RIN BO‘YICHA XALQ DEPUTATLARI VILOYAT KENGASHI DEPUTATI SAYLOVIDA ISHTIROK ETISHGA IJOZAT BERISH TO‘G‘RISIDA

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi Toshkent viloyati Kengashining 2024 yil 30 iyun kuni bo‘lib o‘tadigan 27-Keles saylov okrugida o‘tkaziladigan bo‘shab qolgan o‘ringa Xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashi deputati saylovida ishtirok etish uchun taqdim etgan hujjatlarini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 20-, 89- va 93- moddalariga muvofiq, Toshkent viloyati hududiy saylov komissiyasi

QAROR QILADI:

- Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi** Toshkent viloyati Kengashiga Xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashi deputati saylovida ishtirok etishga ijozat berilsin.
- Ushbu qaror viloyat hududiy saylov komissiyasi rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilinsin.
- Ushbu qaror Markaziy saylov komissiyasiga yuborilsin.

